



TEMIR YO‘L TRANSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17459085>

Abdurazakov Sherzod Xasanovich

Zamonaviy iqtisodiy infratuzilmaning eng muhim vazifasi jamiyatning barcha sohalarining bir maromda ishlashini ta'minlash, ishlab chiqarish va umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan birga, transport, ayniqsa, temir yo‘l transporti O‘zbekiston sanoat va ijtimoiy infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismi vazifasini o‘taydi. Temir yo‘l transport tashkilotlari yuklarni va yo‘lovchilarni tashish, ularni yo‘lda saqlash, turli yuklarni yuklash va tushirish, kerakli vagonlarni ta'minlash, ularni tozalash va poyezdga qo‘shish, umuman transport jarayonini ta'minlaydi. Ushbu sohaga va shunga muvofiq davlat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan maqbul shakllangan va amalga oshirilayotgan transport siyosati, shuningdek, rivojlanish strategiyasi davlatning kelajak uchun barqaror ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini ta'minlashda bevosita asosiy rol o‘ynaydi.

Temir yo‘llar quruqlikdagi transportning boshqa turlaridan o‘z vaqtida va ommaviy yuqori tezlikda tashish bo‘yicha sezilarli darajada ustundir va ko‘pincha energiya samaradorligi, atrof-muhitga ta’siri va boshqa jihatlari bo‘yicha ustunligini


namoyish etadi. Jahon davlatlari iqtisodiyotining samarali rivojlanishida asosiy “qon aylanish” vazifasini bajaruvchi transport kompleksi alohida ahamiyat kasb etadi. Samarali transport tizimi ichki bozorda xosh-ashyo va mahsulot harakatlarini optimallashtiradi, shu bilan bir qatorda tashqi savdoda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi. Umuman olganda mamlakatni keng ko‘lamda rivojlantirish mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarning yuqori sur’atlarda bo‘lishi keng ma’noda transport infratuzilmasining samarali faoliyatiga ham bevosita bog‘liq.

Temir yo‘l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishga maqsadli yondashuvlarni joriy etish va butun tashkiliy-iqtisodiy tizimini uzviy qamrab oladigan hamda uning muhim xususiyatlarini nazariy va uslubiy jihatdan asoslab beradigan konseptual modelini ishlab chiqish zarur. Temir yo‘l transportida korporativ boshqaruv tashkilotning ichki boshqaruvini va boshqarmalar, direktorlar kengashi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga imkon beradi, aksiyadorlar va davlat manfaatlarini va moliyaviy



hissalarini himoya qiladi. Taklif etilayotgan konseptual modelning maqsadi – temir yo‘l transportini uning infratuzilmaviy rivojlanish turini mamlakat sanoat taraqqiyoti darajasiga

mos keladigan, mamlakatdagi iqtisodiy o‘shishga va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni oshirishga eng yuqori darajada ko‘maklashadigan mutanosib rivojlantirishga erishishdan iboratdir.



1-rasm. Temir yo‘l transport tizimining tashkiliy-iqtisodiy asosini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.

Temir yo‘l transportini kompleks rivojlantirish strategiyasining samarali amalga oshirilishini ta’minlash uchun uni strategik integratsiyalash taklif etiladi, ya’ni insorting, autsorting va diversifikatsiya orqali globallashtirishga olib borishdir. Globallashtirish: jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish: xalqaro tranzit koridorlarini rivojlantirish; multimodal

tashuvlarni rivojlantirish; xalqaro logistika muvofiqlashtirish markazini rivojlantirish. Insorting integratsiyasi: tashish faoliyatini ta’minlovchi ixtisoslashtirilgan korxonalar; temir yo‘llarini ta’minlash infratuzilmasining ixtisoslashtirilgan korxonalari; temir yo‘l telekommunikatsiya infratuzilmasining ixtisoslashtirilgan korxonalari; ishlab



chiqarish korxonalarini tashkil etish; temir yo‘l transporti uchun kadrlar tayyorlaydigan ixtisoslashtirilgan korxonalar. Outsoring integratsiyasi: logistika va omborxona markazlari. ekspeditorlik va outsoring kompaniyalari soha va transport kompaniyalari Diversifikatsiya: yirik mintaqaviy, respublika va xalqaro loyihalarda ishtirok etish; innovatsiya va investitsiya faoliyati; tarmoq pensiya jamg‘armasini tashkil etish; sug‘urta fondlarida ishtirok etish; maslahat xizmatlari. Taklif etilayotgan yondashuvlar globallashuv sharoitida temir yo‘l transporti faoliyatini diversifikatsiya qilishning turli yondashuvlaridan foydalangan holda insorting (vertikal) va outsoring (gorizontal) integratsiya asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, bu uning raqobat ustunliklarini bosqichma-bosqich

oshirishni ta‘minlaydi.

Transport tarmog‘ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy tizimni qayta tuzish jarayoni hamda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar boshqaruv ustuvorliklari va usullarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Shuning uchun ichki va xalqaro yuklarni tashishda yagona transport tizimining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash va ularning jamiyat manfaatlari doirasidagi boshqarish vositalarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Turli transport vositalarida yuk tashishning yagona transport tizimini boshqarish mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillarni e‘tiborga olgan holda tizimli tadqiq etish lozim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi - O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.11.2024 yildagi O‘RQ-1006-son;
2. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.10.2023 yildagi 329-son;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. 24-yanvar 2020-yil;
4. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost–Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. *Journal of Transport Economics and Policy*, 41:173–188 p.
5. Kovrijных I.V. Analiz i otsenki effektivnosti upravleniya v organizatsii / I.V. Kovrijных. – Barnul: AF SibAGS, 2016. – 86s.
6. Samatov G‘.A., Komiljonov B.I., Galimova F.R. Logistik boshqaruv kotsepsiyalari va modellari – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 232 b.
7. Zohidov A.A. Markaziy osiyo transport tizimini samarali boshqarish mexanizmini takkomillashtirish. *Iqt. fan. dok. ... dis. Avtoref.*, Toshkent 2018.